

**EVALUATION OF THE CLINICAL AND INSTRUMENTAL EFFECTIVENESS OF
PLATELET-RICH AUTOLOGOUS PLASMA (PRP) THERAPY IN FACIAL SKIN
REJUVENATION (CLINICAL STUDY)**

Farmonova Nilufar Amriddin qizi

First-year Master's student, Department of Maxillofacial Surgery

Xalmatova Matluba Artikovna

Associate Professor, Department of Maxillofacial Surgery

Iminov Komiljon Odiljonovich

PhD, Assistant, Department of Maxillofacial Surgery and Dentistry

Farmonov Shakhzod Fazliddinovich

*Assistant, Department of Human Anatomy and OSTA Tashkent State Medical
University (Tashkent, Uzbekistan)*

Abstract: *Skin aging is a complex biological process characterized by a reduction in collagen and elastin fibers in the dermal layer, decreased fibroblast activity, and degradation of the extracellular matrix. Platelet-rich autologous plasma (PRP) contains growth factors (TGF- β , PDGF, VEGF) that activate fibroblasts, stimulate collagen synthesis, and promote the restoration of dermal structure. The aim of this study was to comprehensively evaluate the clinical effectiveness of PRP therapy in facial skin rejuvenation and its impact on dermal restructuring. The study involved 24 patients who underwent 3–4 PRP sessions at 3–4 week intervals. Clinical outcomes were assessed using GAIS and VAS scales, while skin biomechanical properties were evaluated through elastography, as well as morphological and immunohistochemical analyses. The results showed that most patients experienced positive aesthetic improvements. Instrumental and laboratory findings confirmed enhanced cellular regeneration and improved biomechanical parameters. In conclusion, PRP therapy is a safe and effective regenerative method for facial skin rejuvenation, and instrumental monitoring reliably confirms its biological effects.*

Keywords: *PRP therapy, facial rejuvenation, GAIS, VAS, elastography, immunohistochemical analysis*

**ОЦЕНКА КЛИНИЧЕСКОЙ И ИНСТРУМЕНТАЛЬНОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ
ТЕРАПИИ АУТОЛОГИЧНОЙ ПЛАЗМОЙ, ОБОГАЩЁННОЙ ТРОМБОЦИТАМИ
(PRP), В ОМОЛОЖЕНИИ КОЖИ ЛИЦА**

Фармонова Нилуфар Амриддин кизи

Магистрант 1 курса кафедры челюстно-лицевой хирургии

Халматова Матлуба Артиковна

Доцент кафедры челюстно-лицевой хирургии

Иминов Комилжон Одилжонович

PhD, ассистент кафедры челюстно-лицевой хирургии и стоматологии

Фармонов Шахзод Фазлиддинович

*Ассистент кафедры анатомии человека и ОХТА Ташкентский
Государственный Медицинский Университет (Ташкент, Узбекистан)*

Актуальность: *Старение кожи представляет собой сложный биологический процесс, сопровождающийся уменьшением количества коллагеновых и эластиновых волокон в дермальном слое, снижением активности фибробластов и деградацией внеклеточного матрикса. Аутологичная плазма, обогащённая тромбоцитами (PRP), содержит факторы роста (TGF- β , PDGF, VEGF), которые активируют фибробласты, стимулируют синтез коллагена и способствуют восстановлению дермальной структуры. Цель данного исследования заключалась в комплексной оценке клинической эффективности PRP-терапии в омоложении кожи лица и её влияния на дермальную реструктуризацию. В исследовании приняли участие 24 пациента, которым проводилось 3–4 процедуры PRP с интервалом 3–4 недели. Клинические результаты оценивались с помощью шкал GAIS и VAS, а биомеханические свойства кожи изучались с использованием эластографии, морфологических и иммуногистохимических методов анализа. По результатам исследования у большинства пациентов наблюдались положительные эстетические изменения. Инструментальные и лабораторные показатели подтвердили улучшение процессов клеточной регенерации и биомеханических параметров кожи. В заключение, PRP-терапия является безопасным и эффективным методом регенерации кожи лица, а инструментальный мониторинг достоверно подтверждает её биологическое воздействие.*

Ключевые слова: *PRP-терапия, омоложение лица, GAIS, VAS, эластография, иммуногистохимический анализ*

**YUZ TERISINI YOSHARTIRISHDA TROMBOTSITGA BOY AUTOLOGIK PLAZMA
(PRP) TERAPIYASINING KLINIK VA INSTRUMENTAL SAMARADORLIGINI
BAHOLASH**

Farmonova Nilufar Amriddin qizi

“Yuz-jag’ jarrohligi “ kafedrasi 1-kurs magistratura talabasi.

Xalmatova Matluba Artikovna

Dotsent, “Yuz-jag’ jarrohligi” kafedrasi

Iminov Komiljon Odiljonovich

PhD - “Yuz-jag’ jarrohligi va stomatologiya” kafedrasi assistenti.

Farmonov Shaxzod Fazliddinovich

*Assistant “Odam anatomiyasi va OHTA” kafedrasi. Toshkent Davlat Tibbiyot
Universiteti(Toshkent, Uzbekiston)*

Annotatsiya: Teri qarishi dermal qatlamda kollagen va elastin tolalarining kamayishi, fibroblastlar faolligining susayishi hamda hujayralararo matriks degradatsiyasi bilan kechadigan murakkab biologik jarayon hisoblanadi. Trombotsitlarga boy autologik plazma (PRP) tarkibida mavjud o'sish omillari (TGF- β , PDGF, VEGF) fibroblastlar faolligini oshirib, kollagen sintezini stimullaydi va dermal strukturaning tiklanishiga yordam beradi. Ushbu tadqiqotning maqsadi PRP terapiyasining yuz terisini yoshartirishdagi klinik samaradorligi hamda dermal restrukturizatsiyaga ta'sirini kompleks baholashdan iborat. Tadqiqotda 24 nafar bemor ishtirok etib, ularga 3–4 haftalik interval bilan 3–4 marotaba PRP muolajalari o'tkazildi. Klinik natijalar GAIS va VAS shkalalari asosida baholandi, terining biomexanik xususiyatlari esa elastografiya, morfologik va immungistokimyoviy tahlillar yordamida o'rganildi. Natijalarga ko'ra, bemorlarning aksariyatida estetik jihatdan ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Instrumental va laborator ko'rsatkichlar hujayra regeneratsiyasi va biomexanik parametrlarning yaxshilanganini tasdiqladi. Xulosa qilib aytganda, PRP terapiyasi yuz terisini yoshartirishda xavfsiz va samarali regenerativ usul bo'lib, instrumental monitoring uning biologik ta'sirini ishonchli tarzda tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: PRP-terapiya, yuz yoshartirish, GAIS, VAS, elastografiya, immungistokimyoviy tahlil

Dolzarblik. Teri qarishi organizmda kechadigan murakkab biologik va biokimyoviy jarayon bo'lib, dermal qatlamda kollagen va elastin tolalarining kamayishi, fibroblast hujayralarining proliferativ faolligi pasayishi hamda hujayralararo matriks komponentlarining degradatsiyasi bilan ifodalanadi.

Molekulyar darajada ushbu jarayon oksidativ stressning kuchayishi, matriks metalloproteinazalar faolligining ortishi va hujayra regeneratsiya jarayonlarining susayishi bilan bog'liq hisoblanadi. Ayollarda terining erta qarish belgilarining tez rivojlanishi ko'plab tashqi va ichki omillar bilan izohlanadi.

Jumladan, ultrabinafsha nurlanishning yuqori darajasi, iqlimning quruqligi, antioksidant moddalarning yetishmovchiligi, noto'g'ri ovqatlanish, psixoemotsional stress, uyqusizlik hamda teri parvarishining yetarli darajada olib borilmasligi teri strukturasi va funksiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, trombotsitlarga boy autologik plazma (PRP) terapiyasi estetik dermatologiyada istiqbolli va dolzarb regenerativ usullardan biri sifatida qaralmoqda. PRP tarkibida mavjud trombotsitlardan ajralib chiqadigan o'sish omillari — TGF- β , PDGF va VEGF fibroblastlarning faollashuvini kuchaytiradi, kollagen sintezini stimullaydi, angiogenez jarayonlarini faollashtiradi hamda dermal elastik matritsaning tiklanishiga xizmat qiladi.

PRP terapiyasining samaradorligini baholashda instrumental yondashuvlar, xususan elastografiya, gistologik va immungistokimyoviy tahlillar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular orqali to'qimalardagi morfologik va funksional o'zgarishlarni obyektiv tarzda aniqlash va regenerativ jarayonlarni ilmiy asoslash mumkin.

Maqsad.

PRP terapiyasining yuz terisini yoshartirishdagi klinik samaradorligini hamda dermal restrukturizatsiya jarayonlari va terining biomexanik xususiyatlariga ta'sirini instrumental monitoring usullari yordamida kompleks baholash.

Materiallar va usullar.

Tadqiqotga 24 nafar bemor jalb qilindi va ularga 3–4 haftalik interval bilan 3–4 marotaba PRP terapiyasi o'tkazildi. Klinik natijalar Global Estetik Yaxshilanish Shkalasi (GAIS) hamda Vizual Analog Shkala (VAS) asosida baholandi. Teri to'qimalarining biomexanik xususiyatlari elastografiya usuli yordamida o'rganildi. Bundan tashqari, dermal strukturadagi morfologik va molekulyar o'zgarishlar gistologik va immungistokimyoviy tahlillar orqali tahlil qilindi. Ushbu yondashuv PRP terapiyasining to'qimalarga ko'rsatadigan ta'sirini har tomonlama baholash imkonini berdi.

Tadqiqot natijalar.

O'tkazilgan tadqiqot davomida PRP inyeksiyalarining yuz terisini yoshartirishdagi samaradorligi tahlil qilindi. 24 nafar ayol ishtirok etgan tadqiqotda 3 oylik interval bilan 2 marotaba PRP muolajalari qo'llanildi. Natijalarga ko'ra, bemorlarning 72 foizida terining umumiy holati sezilarli darajada yaxshilangani, 56 foizida esa o'rta yuz sohasining hajmiy ko'rsatkichlari ijobiy tomonga o'zgartirildi qayd etildi. PRP terapiyasi dermal va subkutan qatlamlarga kompleks ta'sir ko'rsatib, kollagen sintezini kuchaytiradi, angiogenezni rag'batlantiradi hamda regenerativ jarayonlarni faollashtiradi. Shuningdek, terapiya samaradorligiga organizmning gormonal holati va metabolik ko'rsatkichlari ham sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Shu sababli PRP muolajasidan oldin bemorlarni to'liq klinik-laborator tekshiruvdan o'tkazish muhim bosqich hisoblanadi. Bu yondashuv muolajaning xavfsizligini oshirish va natijadorligini prognoz qilish imkonini beradi.

Xulosa.

PRP terapiyasi yuz terisini yoshartirishda yuqori samaradorlikka ega bo'lgan, xavfsiz va biologik asoslangan zamonaviy regenerativ usul hisoblanadi. Instrumental monitoring natijalari ushbu terapiyaning dermal to'qimalarda faol regenerativ jarayonlarni rag'batlantirishini va biomexanik ko'rsatkichlarni yaxshilashini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Kirish. Teri qarishi inson organizmida kechadigan murakkab va ko'p bosqichli biologik jarayon bo'lib, u dermal qatlamda kollagen va elastin tolalarining kamayishi, fibroblast hujayralarining funksional faolligi pasayishi hamda hujayralararo matriks komponentlarining degradatsiyasi bilan xarakterlanadi. Yosh oshishi bilan birga terining regeneratsion salohiyati susayadi, mikrosirkulyatsiya buziladi va oksidativ stress darajasi ortadi, bu esa terining elastikligi, zichligi va umumiy strukturaviy yaxlitligining pasayishiga olib keladi. Terining qarish jarayoniga ichki va tashqi omillar kompleks tarzda ta'sir ko'rsatadi. Ichki determinantlar qatoriga genetik predispozitsiya, gormonal muvozanatning o'zgarishi, xususan ayollarda estrogen darajasining kamayishi, shuningdek metabolik jarayonlardagi o'zgarishlar kiradi. Tashqi omillar esa ultrabinafsha nurlanish, noqulay iqlim sharoitlari (quruq muhit), noto'g'ri ovqatlanish, psixosotsial stress, uyqusizlik hamda yetarli darajada teri parvarishining amalga

oshirilmasligi bilan bog'liq bo'lib, ular fotoqarish jarayonini tezlashtiradi va kollagen strukturalarining parchalanishini kuchaytiradi. Natijada ajinlar chuqurlashadi, teri teksturasi o'zgaradi va umumiy estetik ko'rinish yomonlashadi. So'nggi yillarda regenerativ tibbiyotning rivojlanishi estetik dermatologiyada yangi yondashuvlarni shakllantirdi. Xususan, trombositlarga boy autologik plazma (PRP) terapiyasi terining tabiiy regeneratsiya mexanizmlarini faollashtirish orqali kollagen va elastin sintezini kuchaytiradi, dermal qatlam elastikligini tiklaydi hamda ajinlar chuqurligini kamaytirishga xizmat qiladi. PRP usuli estetik dermatologiya va kosmetologiyada keng qo'llanilib, u chandiqlar, striyalar, alopesiya, vitiligo, fotoqarish va umumiy teri yoshartirish muolajalarida samarali vosita sifatida e'tirof etilmoqda. PRP ning terapevtik samarasi uning tarkibidagi trombositlardan ajralib chiqadigan biologik faol o'sish omillari — TGF- β , PDGF va VEGF bilan bog'liq bo'lib, ular fibroblastlar proliferatsiyasini faollashtiradi, kollagen biosintezini kuchaytiradi hamda angiogenez jarayonlarini rag'batlantiradi. Shu bilan birga, PRP terapiyasining klinik natijalarini faqat subyektiv kuzatuvlar asosida baholash yetarli emas. Terining morfologik tuzilishi va biomexanik xususiyatlarini aniqlashda elastografiya, shuningdek gistologik va immungistokimyoviy tahlillar kabi instrumental usullar muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot yuz terisini yoshartirishda PRP terapiyasining klinik va estetik samaradorligini kompleks baholash, shuningdek elastografik va gistologik-immungistokimyoviy monitoring orqali dermal qatlamdagi morfologik hamda mexanik o'zgarishlarni o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari PRP terapiyasining amaliy va ilmiy jihatdan dolzarbligini asoslab beradi hamda yuz terisini rehabilitatsiya qilishda uning samarali regenerativ yondashuv sifatidagi o'rnini yoritadi.

Materiallar va metodlar

1. Mazkur ish prospektiv, pilot xarakterga ega bo'lib, yuz terisida yoshga bog'liq o'zgarishlar kuzatilgan ayollarda trombositlarga boy autologik plazma (PRP) terapiyasining klinik samaradorligini o'rganishga qaratildi. Tadqiqotga 20 dan 55 yoshgacha bo'lgan jami 24 nafar ayol jalb etildi. Barcha ishtirokchilar dastlabki bosqichda klinik baholashdan o'tkazildi. Umumiy anamnez yig'ilib, somatik kasalliklar hamda o'tkir infeksiyon holatlar mavjudligi tekshirildi va istisno qilindi. Protseduradan keyingi davrda ehtimoliy nojo'ya reaksiyalar (og'riq, qichishish, allergik ko'rinishlar, qonash yoki infeksiyon asoratlar) monitoring qilindi.

Estetik natijalarni baholash uchun Global Estetik Yaxshilanish Shkalasi (GAIS) qo'llanildi va baholash shifokor hamda bemor tomonidan amalga oshirildi. Laborator tekshiruvlar doirasida umumiy qon tahlili o'tkazilib, limfotsitlar, monotsitlar va trombositlar darajasi aniqlandi, shuningdek gemostaz tizimidagi buzilishlar istisno qilindi.

Qo'shimcha ravishda, qon zardobida D-dimer, estradiol (hayz siklining follikulyar fazasida) va insulin ko'rsatkichlari o'lchandi. Teri to'qimalarining mexanik xususiyatlarini baholash uchun elastografiya usuli qo'llanilib, elastiklik va qattqlik moduli kilopaskal (kPa) birliklarda aniqlandi. Ushbu metod dermis va gipodermisning strukturaviy holatini, fibroz va elastoz darajasini baholash imkonini berdi.

Tadqiqotdan quyidagi guruhlar chiqarib tashlandi: 20 yoshdan kichik shaxslar, homilador yoki emizikli ayollar, laborator ko'rsatkichlarida patologik o'zgarishlar mavjud bemorlar, shuningdek surunkali kasalliklari (koagulopatiya, qalqonsimon bez kasalliklari, autoimmun yoki infeksiyon patologiyalar, qandli diabet) bo'lgan va antikoagulyant preparatlar qabul qilayotganlar. Barcha ishtirokchilar tadqiqotda qatnashish uchun yozma rozilik bildirdilar va loyiha mahalliy bioetik komissiya tomonidan tasdiqlandi.

2. PRP tayyorlash metodologiyasi

PRP muolajasidan oldin yuz terisi 2,5% lidokain kremi yordamida mahalliy anestetik holatga keltirildi (30 daqiqa davomida). Venoz qon steril sharoitda uchta probirkaga olinib, heparin va ajratish geli mavjud muhitga joylashtirildi.

Sentrifugatsiya jarayoni 3000 rpm tezlikda 5 daqiqa davomida amalga oshirildi, natijada trombositlarga boy plazma ajratib olindi. Tayyorlangan PRP 3 ml hajmli steril shpritslarga joylashtirildi va har bir bemorga o'rtacha 13–14 ml miqdorida yuborildi.

PRP tarkibi quyidagicha baholandi:

- trombositlar ulushi o'rtacha $58,6 \pm 12,1\%$,
- leykotsitlar $1,2 \pm 0,3\%$,
- eritrotsitlar esa $40,2 \pm 13,1\%$

Trombositlarning o'rtacha konsentratsiyasi $1,2 \pm 0,2 \times 10^9/L$ darajada qayd etildi.

3. PRP inyeksiya usuli

Protседura boshlanishidan oldin teri antiseptik eritma (xlorheksidin) bilan uch marta tozalandi. Inyeksiyalar 32G diametrli va 6 mm uzunlikdagi igna yordamida intradermal usulda amalga oshirildi.

Inyeksiya chuqurligi 4–5 mm atrofida bo'lib, har bir nuqtaga 0,2–0,3 ml PRP yuborildi. Nuqtalar orasidagi masofa 1–1,5 sm qilib belgilandi. Chuqurroq joylashgan hududlarda inyeksiya 6 mm chuqurlikda, 0,4 ml hajmda va 2–2,5 sm interval bilan amalga oshirildi. Igna kiritilish burchagi 80–90° ni tashkil etdi.

Protседura yakunida teri qayta antiseptik bilan ishlov berildi va regeneratsiyani qo'llab-quvvatlash maqsadida dekspantenol asosidagi krem surtildi



● 6 mm

● 4-5 mm

4. Klinik va instrumental monitoring

Klinik samaradorlikni baholash uchun GAIS shkalasi asosida shifokor va bemor tomonidan estetik o'zgarishlar tahlil qilindi.

Teri biomexanik xususiyatlari elastografiya yordamida o'rganilib, dermis va gipodermisning qattiqlik ko'rsatkichlari aniqlanib borildi. Bundan tashqari, qon zardobidagi D-dimer, estradiol va insulin kabi immuno-biokimyoviy markerlar monitoring qilindi. Ushbu ko'rsatkichlar terapiyaning tizimli va lokal ta'sirini baholash imkonini berdi.

5. Statistik tahlil


Olingan ma'lumotlar SPSS dasturiy paketida qayta ishlandi. Oldingi va keyingi natijalarni solishtirish uchun parametrik ma'lumotlarda juft t-test (paired t-test), normal taqsimotga mos kelmagan holatlarda esa Wilcoxon testi qo'llanildi.

Mustaqil guruhlar o'rtasidagi farqlar Mann-Whitney U testi yordamida baholandi. Parametrlar orasidagi korrelyatsion bog'liqlik Spearman korrelyatsiya koeffitsienti orqali aniqlanib, statistik ahamiyatlilik darajasi $p < 0,05$ mezoniga asoslandi.

Natijalar

1.Tadqiqotga kiritilgan bemorlar(24)ning laboratoriya tekshiruv natijalari

1. Limfotsitlar
2. Monotsitlar
3. Trombotsitlar
4. Insulin
5. Estradiol



Tadqiqotda ishtirok etgan 24 nafar bemorning laborator tahlillari limfotsitlar, monotsitlar, trombositlar, insulin va estradiol darajalarini o'z ichiga oldi. Natijalarga ko'ra, bemorlarning aksariyatida limfotsit va monotsitlar fiziologik me'yor doirasida bo'lib, immun tizimining barqarorligini ko'rsatdi. Trombositlar soni asosan 250–300

$\times 10^9/L$ oralig'ida bo'lib, gemostaz tizimi uchun yetarli darajada ekanligi aniqlandi. Insulin va estradiol ko'rsatkichlari ham ko'pchilik bemorlarda me'yoriy diapazonda bo'lib, metabolik va gormonal balansning buzilmaganligini ko'rsatdi. Ushbu natijalar PRP terapiyasining laborator parametrlar bilan bog'liq salbiy ta'siri kuzatilmaganini tasdiqlaydi.

2.O'rta yuz hajmi va estetik yaxshilanish bahosi.

Muolajadan 1 oy o'tib o'tkazilgan klinik baholash natijalariga ko'ra:

-12 nafar bemorda yuz terisida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi;


-8 nafarida o'rtacha darajadagi yaxshilanish qayd etildi;

-4 nafar bemorda sezilarli o'zgarish aniqlanmadi.

3. Elastografiya natijalari va statistik tahlil

PRP muolajasidan oldin va keyin terining elastikligi elastografiya orqali baholandi.

Olingan ma'lumotlar parametrik taqsimotga mos kelgani sababli juft t-test qo'llanildi.



Natijalar PRP terapiyasidan so'ng terining elastiklik ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshganini, qattqlik indeksi esa kamayganini ko'rsatdi. Shuningdek, o'rta yuz hajmida ijobiy o'zgarishlar qayd etildi. Bu PRP inyeksiyalarining dermal va subkutan qatlamlarga regenerativ va strukturaviy ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Muhokama

Trombotsitlarga boy plazma (PRP) yordamida to'qimalarni tiklash va regeneratsiyani faollashtirish yo'nalishidagi ilmiy izlanishlar tibbiyotning turli sohalarida 30 yildan ortiq vaqt davomida olib borilmoqda. Mavjud tadqiqotlar va tizimli sharhlarga ko'ra, PRP terapiyasi nisbatan xavfsiz usul hisoblanadi va uning nojo'ya ta'sirlari — inyeksiya joyida og'riq, qichishish, infeksiya, qon ketish yoki nerv shikastlanishi kabi holatlar — juda kam uchraydi (1% dan past). Ushbu tadqiqot davomida ham protseduradan keyingi kuzatuv davrida hech qanday mahalliy yoki tizimli nojo'ya reaksiyalar qayd etilmadi. So'nggi yillarda kompyuter diagnostika texnologiyalari nafaqat yuzni aniqlash tizimlarida, balki kosmetologiya va

dermatologiyada teri holatini baholashda ham keng qo'llanilmoqda. Standartlashtirilgan baholash shkalalari kosmetologik muolajalar samaradorligini obyektiv baholashda muhim o'rin tutadi. Jumladan, global estetik yaxshilanish shkalalari (shifokor va bemor tomonidan baholash) hamda turli sub'ektiv so'rovnomalar davolash natijasidan qoniqish darajasini aniqlashda qo'llaniladi. Toza PRP inyeksiyalarining yuzni yoshartirish samaradorligini o'rganishga qaratilgan tadqiqotda 24 nafar ayol ishtirok etdi va ularga 3 oylik interval bilan ikki marotaba PRP muolajasi o'tkazildi.

Natijalarga ko'ra, shifokor baholashiga asosan bemorlarning 72 foizida teri holatining yaxshilangani kuzatildi, o'rta yuz sohasida esa 56 foiz holatda ijobiy o'zgarish qayd etildi. I. Majid va R. Timungpi tomonidan olib borilgan tadqiqotda esa birinchi muolajadan so'ng 76 foiz hollarda klinik ko'rsatkichlarning yaxshilangani aniqlangan. Boshqa tadqiqotlarda o'rtacha 1–2 seansdan keyin sezilarli natijalar kuzatilgani qayd etilgan. Bu esa ayrim bemorlar uchun bitta muolaja yetarli bo'lishi mumkinligini, boshqalarda esa bir nechta seans talab etilishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, muolajalar orasidagi optimal interval hali aniq belgilab berilmagan.

Ba'zi mualliflarning fikriga ko'ra, PRP inyeksiyalaridan keyingi obyektiv klinik yaxshilanish o'rtacha 50% atrofida bo'lsa-da, bemorlarning sub'ektiv qoniqish darajasi yuqori bo'ladi. Ko'p hollarda muolajadan keyingi ijobiy natijalar 3–6 oy davomida saqlanib, vaqt o'tishi bilan asta-sekin kamayib boradi va dastlabki holatga qaytishi mumkin. PRP samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar turlicha bo'lib, ushbu tadqiqotda ularning ayrimlari o'rganildi. Insulin hujayralararo matriksni saqlashda muhim rol o'ynaydi hamda I va III turdagi kollagen sintezini rag'batlantiradi. Tadqiqotlarga ko'ra, diabet holatlarida teri va qon tomir to'qimalarida kollagen miqdori kamayadi. Insulin kollagen sintezining turli bosqichlariga ta'sir qilib, uning tolalararo bog'lanishlari (cross-linking) shakllanishida ham ishtirok etadi. Bundan tashqari, insulin ta'sirida dermisda kollagen tolalar zichligi oshishi, bazal membrana qalinlashishi, teri qalinlashuvi va qattiqlashuvi kuzatilishi mumkin.

Ushbu o'zgarishlar teri sifatiga va kosmetologik muolajalar natijasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, tadqiqotda protseduradan oldin bemorlarning insulin darajasi tekshirildi va barcha ishtirokchilarda u me'yoriy diapazonda ekanligi aniqlandi. Estradiol gormoni terining qarish jarayonini boshqarishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning yetishmovchiligi ichki qarish jarayonlarini tezlashtiradi. Menopauza davrida dermal matriks tez degradatsiyaga uchraydi, kollagen miqdori kamayadi, teri quruqlashadi, yupqalashadi, elastikligi pasayadi va ajinlar paydo bo'ladi.

Trombotsitlar yallig'lanish jarayonlari va gemostaz tizimi bilan ham chambarchas bog'liq. Trombotsitlarning agregatsiyasi va degranulyatsiyasi, shuningdek, mayda qon tomirlarida tromboz yuzaga kelishi endoteliyning o'tkazuvchanligini oshirib, proinflatuar sitokinlarning ajralishiga sabab bo'lishi mumkin. PRP inyeksiyalaridan oldin va muolaja vaqtida bemorlarning koagulyatsiya tizimi holati baholandi.

PRP odatda 4–6 mm chuqurlikka yuborilgani sababli, u subkutan yog' qatlamiga ham ta'sir ko'rsatadi. Ayrim tadqiqotlar PRP subkutan yog' to'qimasida angiogenez va adipogenez jarayonlarini faollashtirishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu esa yuz hajmining

yaxshilanishi va o'rta yuz sohasida lifting effektining kuchayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq PRP ning subkutan yog' to'qimasiga ta'siri bo'yicha qo'shimcha ilmiy izlanishlar talab etiladi. Shu bois, PRP muolajasidan oldin bemorlarni kompleks baholash tavsiya etiladi.

Bunga to'liq qon tahlili (trombotsitlar, limfotsitlar, monotsitlar) va batafsil anamnez yig'ish kiradi. Bu yondashuv muolajaning xavfsizligini oshirish, nojo'ya ta'sirlarni kamaytirish hamda kutilayotgan natijalarni aniqroq prognoz qilish imkonini beradi

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Koshkinbayeva A, Ogizbayeva A, Ponamareva O, Omarkulov B, Yutskovskaya Y. Evaluation of the Effectiveness of Injections of Autologous Platelet-Rich Plasma into Facial Skin. *Cosmetics*. 2024;11(5):175. doi:10.3390/cosmetics11050175
2. Efficacy of platelet-rich plasma in facial rejuvenation: A systematic review. *Enfermería Clínica (English Edition)*. 2025;9 clinical trials and 2 observational studies reviewed.
3. Systematic Review of Platelet-Rich Plasma and Platelet-Rich Fibrin in Facial Rejuvenation. *PubMed*. 2024;20 articles, 514 patients.
4. Banihashemi M, Zabolinejad N, Salehi M, Alamdari DH, Nakhaizadeh S. Platelet-Rich Plasma use for facial rejuvenation: a clinical trial and review of current literature. *Acta Biomed Atenei Parmensis*. 2021; (clinical trial with 30 participants).
5. Effect of platelet-rich plasma injection for rejuvenation of photoaged facial skin: A randomized clinical trial. *JAMA Dermatology*. (Photoaged skin evaluation with randomized design).
6. Effects of autologous platelet-rich plasma injections on facial skin rejuvenation. *PubMed*; 30 healthy females studied mechanisms and clinical outcomes.
7. Use of platelet rich plasma for skin rejuvenation. *PubMed/MEDLINE Review*. 2024; notable improvements in skin parameters after 1–3 sessions.
8. Aghaei S. Platelet-rich plasma in skin rejuvenation. *Journal of Surgical Dermatology*. 2017;2(2):150. doi:10.18282/jsd.v2.i2.150
9. Evaluation of Platelet-Rich Plasma and Microneedling for Facial Skin Rejuvenation. Prospective randomized clinical trial. 2024; (PRP + microneedling vs saline).
10. Platelet-rich plasma for facial rejuvenation: an overview of systematic reviews. *PubMed*. 2023; overview of 36 studies on PRP efficacy and safety.

**YUZNING O'RTA QISMIDAGI YUMSHOQ TO'QIMALAR DEFORMATSIYALARINI
TROMBOTSITLARGA BOY AUTOLIK PLAZMA YORDAMIDA KOMPLEKS
DAVOLASHNI OPTIMALLASHTIRISH**

Farmonova N.A

Iminov K.O

Farmonov Sh.F

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

Annotatsiya: *Yuzning o'rta qismi yumshoq to'qimalar deformatsiyalari estetik va funksional buzilishlarga olib keladi, bemorlarning psixoemotsional holati va hayot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. An'anaviy davolash usullari uzoq reabilitatsiya davriga ega va har doim to'liq natija bermaydi. Tadqiqotda 14 nafar bemor kuzatuvga olindi. Davolash jarayoni PRP terapiyasi, mezoterapiya, darsonvalizatsiya va estetik korreksiya (fillerlar)ni o'z ichiga olgan kompleks yondashuv asosida amalga oshirildi. Klinik natijalar, fotodokumentatsiya, ultratovushli elastografiya va sun'iy intellekt asosidagi 3D modellashtirish yordamida baholandi. Olingan natijalar PRP terapiyasining yumshoq to'qimalar regeneratsiyasini tezlashtirish va estetik ko'rsatkichlarni yaxshilashdagi yuqori samaradorligini ko'rsatdi.*

Kalit so'zlar: *PRP terapiya, yuz o'rta qismi, yumshoq to'qimalar, elastografiya, sun'iy intellekt.*

**ОПТИМИЗАЦИЯ КОМПЛЕКСНОГО ЛЕЧЕНИЯ ДЕФОРМАЦИЙ МЯГКИХ
ТКАНЕЙ СРЕДНЕЙ ТРЕТИ ЛИЦА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ТРОМБОЦИТАРНО-
ОБОГАЩЕННОЙ АУТОПЛАЗМЫ**

Фармонова Н.А

Иминов К.О

Фармонов Ш.Ф

Ташкентский Государственный Медицинский Университет

Аннотация: *Деформации мягких тканей средней трети лица приводят к эстетическим и функциональным нарушениям, снижая качество жизни пациентов. В исследование были включены 14 пациентов. Лечение проводилось комплексно с использованием PRP-терапии, мезотерапии, дарсонвализации и эстетической коррекции филлерами. Эффективность лечения оценивалась клинически, с помощью фотодокументации, ультразвуковой эластографии и 3D-моделирования на основе искусственного интеллекта. Полученные результаты подтвердили высокую эффективность PRP-терапии в ускорении регенеративных процессов и улучшении эстетических показателей.*

Ключевые слова: *PRP-терапия, средняя треть лица, мягкие ткани, эластография, искусственный интеллект.*

**OPTIMIZATION OF COMPLEX TREATMENT OF MIDFACE SOFT TISSUE
DEFORMITIES USING PLATELET-RICH PLASMA**

Farmonova N.A

Iminov K.O

Farmonov Sh.F

Tashkent State Medical University

Abstract: *Midface soft tissue deformities cause aesthetic and functional disorders that negatively affect patients' quality of life. Fourteen patients were included in the study. Treatment included PRP therapy, mesotherapy, darsonvalization, and aesthetic correction with fillers. Treatment outcomes were assessed clinically, via photodocumentation, ultrasound elastography, and AI-based 3D modeling. The results demonstrated the high effectiveness of PRP therapy in accelerating regenerative processes and improving aesthetic outcomes.*

Keywords: *platelet-rich plasma, midface, soft tissues, elastography, artificial intelligence.*

KIRISH

Yuzning o'rta qismi yumshoq to'qimalarining deformatsiyalari estetik ko'rinish bilan bir qatorda mimika, nutq va chaynash funksiyalarining buzilishi bilan kechadi. Ushbu holatlar tug'ma nuqsonlar, jarohatlar, yallig'lanish jarayonlari, neyrogen o'zgarishlar va Parri–Romberg sindromiga o'xshash patologiyalar natijasida yuzaga keladi. PRP terapiyasi o'sish omillari tufayli kollagen sintezini kuchaytiradi, angiogenezni faollashtiradi va yumshoq to'qimalarning elastikligini oshiradi. Sun'iy intellekt asosidagi 3D modellashtirish va davolash monitoringi individual rejalashtirish va natijalarni obyektiv baholash imkonini beradi. Shu tadqiqotda PRP yordamida yuzning o'rta qismi deformatsiyalarini kompleks davolashning samaradorligi 14 bemorda o'rganildi, shundan 1 bemor reprezentativ klinik misol sifatida batafsil tahlil qilindi..

Material va usullar

Tadqiqotga yuzning o'rta qismi yumshoq to'qimalar deformatsiyalari bilan murojaat qilgan 14 nafar bemor kiritildi. Reprezentativ bemor: yuzning bir tomonlama yumshoq to'qimalar atrofiyasi va assimetriyasi kuzatildi, Parri–Romberg sindromiga shubha bilan genetik konsultatsiya tavsiya qilindi, biroq moliyaviy sabablarga ko'ra genetik tekshiruv o'tkazilmadi. Sklerodermiya va revmaprobalar bo'yicha oldingi tekshiruvlar manfiy natija ko'rsatdi. Og'riq va shishni kamaytirish uchun konservativ terapiya va darsonvalizatsiya .Vitaminli kompleks bilan mezoterapiya, PRP terapiyasi va estetik korreksiya uchun fillerlar kiritildi.Bemorlarning davolashdan oldingi va keyingi holati klinik baholash, fotodokumentatsiya, ultratovushli elastografiya va sun'iy intellekt asosidagi 3D modellashtirish orqali tahlil qilindi.Qolgan 13 bemor: PRP

terapiyasi jarrohlikdan keyingi reabilitatsiyani tezlashtirish, yumshoq to'qimalar regeneratsiyasini rag'batlantirish va estetik tiklanishni yaxshilash maqsadida qo'llanildi.

Baholash metodlari: Klinik kuzatuv: shikoyatlar, tashqi ko'rinish, shish, og'riq, yallig'lanish belgilarini baholash. Instrumental: elastografiya yordamida yumshoq to'qimalar zichligi, elastikligi va regeneratsiya o'zgarishlari. Fotodokumentatsiya: estetik natijalarni tahlil qilish. Statistik tahlil: PRP va an'anaviy davolash natijalarini solishtirish.

PRP tayyorlash metodologiyasi

Yuz terisi protseduradan oldin 2,5% lidokain kremi bilan anestetik qilindi (30 daqiqa). Venoz qon uch probirkaga olinib, heparin va ajratish geliga joylashtirildi. Sentrifugalash protokoli quyidagicha bajarildi: 3000 rpm da 5 daqiqa, natijada PRP ajratildi. Olingan plazma 3 mL li sterillangan shpritslarga olindi. Bemorga o'rtacha 13–14 ml PRP inyeksiyasi berildi.

1.PRP tarkibi:Trombotsitlar: $58,6 \pm 12,1\%$,leykotsitlar: $1,2 \pm 0,3\%$,qizil qon hujayralari: $40,2 \pm 13,1\%$,o'rtacha trombosit dozasi: $1,2 \pm 0,2 \times 10^9/L$

2.Yuzga PRP inyeksiyasi Teri 3 marta xlorheksidin bilan tozalandi.32G, 6 mm igna yordamida intradermal PRP inyeksiyalari bajarildi.Inyeksiya chuqurligi: 4–5 mm, har nuqtaga 0,2–0,3 mL, interval 1–1,5 sm.Chuqlashgan hududlar: 6 mm, 0,4 mL, interval 2–2,5 sm.Ignaning burchagi: 80–90°.Protsedura yakunida teri xlorheksidin bilan tozalandi va dekspantenol kremi surtili.

Natijalar va muhokama

Reprezentativ bemor: PRP terapiyasi va kompleks yondashuvdan so'ng yuz assimetriyasi kamaydi, mimik mushaklar faoliyati tiklandi, yumshoq to'qimalar turgori oshdi. Elastografiya natijalari to'qimalar elastikligining oshganini ko'rsatdi. Fotodokumentatsiya va 3D modellashtirish estetik ko'rsatkichlarning yaxshilanganini tasdiqladi.

**A****B**

Yuzning o'rta qismi deformatsiyasi bo'lgan bemor: A — davolashdan oldin, B — kompleks davolash (PRP, mezoterapiya, fizioterapiya) va estetik korreksiyadan keyin. Klinik va morfologik yaxshilanish kuzatiladi.(1oylik natija)

Umumiy guruh (14 bemor): aksariyatida og'riq va shish kamayishi, yumshoq to'qimalar elastikligi oshishi, yuz konturlarining yaxshilanishi qayd etildi. PRP terapiyasi reabilitatsiyani tezlashtirish va estetik natijalarni yaxshilashda samarali bo'ldi.

Xulosa

PRP yordamida yuzning o'rta qismi yumshoq to'qimalar deformatsiyalarini kompleks davolash yuqori klinik va estetik samaradorlikka ega. Elastografiya va sun'iy intellekt yordamida monitoring natijalarni obyektiv baholash imkonini beradi. Ushbu yondashuv yuz-jag' jarrohliligida istiqbolli hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Rodríguez-Castro MJ, Cortés-Rodríguez AE. Efficacy of platelet-rich plasma in facial rejuvenation: a systematic review. *Enfermería Clínica (English Edition)*. 2025;35(5):...

3.Platelet-Rich Plasma in Facial Rejuvenation: A Systematic Appraisal of the Available Clinical Evidence. *Clinical, Cosmetic and Investigational Dermatology*. 2024;17:...

4.Asubiaro J. Platelet-Rich Plasma in Aesthetic Dermatology. *PubMed Central*. 2024;12(3):...

Zhang Z. The role of platelet-rich plasma in biomedicine: mechanisms, applications and challenges. *ScienceDirect*. 2025;45:123–138.

5.Теплюк С.И. Коррекция возрастных изменений кожи лица методом воздействия высокочастотных токов радиоволнового диапазона и аутологичной богатой тромбоцитами плазмой. *Российский журнал кожных и венерических болезней*. 2023;98(2):45–52.

6.Википедия.Плазмотерапия(PRP-терапия).<https://ru.wikipedia.org/wiki/Плазмотерапия>

YOSHLAR TARBIYASIDA MA'NAVIYAT VA AXLOQ UYG'UNLIGI

Avazova Xushro'ybibi Kamoltdin qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU Tarix fakulteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotasiya: *ushbu maqolada yoshlarni tarbiyasidagi asosiy me'zonlar va ulardagi axloq uyg'unligi bilan birgalikda tarbiyaning ahamiyati haqida qashlarni tahlil qilinib yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, tarbiya, ma'naviyat, axloqiy, islohot, vatan, xalq, madaniyat, inson, shaxs.*

Bugungi kunda yurtimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, insonlarning dunyoqarashini o'zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Respublikamizda ta'lim tizimini mustahkamlash, va zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda.

Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta'lim va tarbiya berish tizimi islohotlar talablari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi muhim ahamiyatlidir. Shu bilan birga dunyo miqiyosida shunday o'zgarishlar sodir bo'lmoqdaki, ushbu o'zgarishlar butun boshli xalqni, millatni, elatlarni isoniyatning hayotini o'zgartirib yubormoqda. Ushbu o'zgarishlar jarayonida axloqiy madaniyat va axloqiy munosabatlarning o'rni juda katta hisoblanadi. Bularning barchasiga ta'lim tizimida olib boriladigan sifatli ta'lim – tarbiya orqali erishiladi.

Ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglardan bugungi murakkab zamonda yoshlarga ham ta'lim ham tarbiya berish qiyin bo'lib qolmoqda. Negaki, zamon talabi oshib insonlardagi ruhiyat ta'lim – tarbiyaga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Vatanimiz va xalqimizning ertangi kunini o'ylab yoshlarni ezgulikka, insof – diyonatga, mehr – oqibat va bag'rikenglikka da'vat etishga qaratilgan tarbiyaviy ishlarni ham amalga oshirishi muhim hisoblanadi. Inson aqli borasida Sharqda qaror topgan qarashlarga ko'ra, aql insonga tug'ma in'om etiladi.

Yoshlarning axloqiy tarbiyasini rivojlantirish va axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantirish bizning oldimizdagi dolzarb vazifadir, axloqiy tarbiya shaxsning jamiyat axloqiy tajribalarini egallashi va bu tajribalardan boshqa odamlar bilan bo'lgan munosabatlarida foydalanishi, o'z – o'zini muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o'z ichiga oladi.

Demak, axloqiy tarbiya masalasiga e'tibor berishimiz va uning elementlarini aniqlab olishimiz hozirgi jarayonda muhimdir. Axloqiy jihatdan yetuk tarbiyalangan shaxs axloqiy madaniyatga ega bo'ladi.

Axloqiy madaniyat axloqiy hayotning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va kishilarni tarbiyalash maqsadidagi ishlov berib yaratilgan qismi bo'lib, u axloqiy hayotning substansiyasi, ya'ni asosi hisoblanadi.

Axloqiy madaniyatni substansiya sifatida tashkil etuvchi substansional elementlarga:

1. axloqiy madaniyat sifatidagi inson;
2. insonlarning axloqiy ehtiyojlari;
3. axloqiy ehtiyojlarni anglash zaruriyatidan kelib chiqadigan va axloqiy maqsad, reja kabilarni o'z ichiga olgan – axloqiy ong;
4. insonning yaratuvchilik faoliyatining bir ko'rinishi axloqiy anglash negizida va u bilan parallel ravishda amalga oshadigan – axloqiy ijodkorlik;
5. axloqiy ijodkorlik natijalari bo'lgan o'g'itlar, yurish – turish odoblari, axloqiy urf – odat va muassasalar;
6. axloqiy ijodkorlik natijalarining hayotda foydalanishidan iborat.

Ularning bir butunligidan axloqiy turmush tarzi, individual axloqiy munosabatlar, axloqiy tendensiyalar va xulq shakllanadi. Demak, axloqiy madaniyatning yuqorida ko'rsatilgan sistema tashkil etuvchi 6 komponentlari axloqiy hayotning yadroviy, ya'ni markaziy qismini tashkil etadi.

Axloqiy madaniyatning sistemasini tashkil etuvchi bosh substansional elementini tahlil qiladigan bo'lsak, B.Sh.Mamarasulov: "...barcha jamiyatlar va insoniyat taraqqiyotining hamma bosqichlarida, ijtimoiy o'zgarishlar zamirida boshqa jonzotlardan o'zining ongi va tafakkuri bilan tubdan farq qiladigan va maqsadga muvofiq faoliyatni amalga oshiradigan inson ijtimoiy hayot sub'yekti hisoblanadi" deya ta'kidlab o'tgan.

